

XORAZM XALQ MAQOLLARINING LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Xaytbayeva Muxlisa Muxtor qizi

UrDU Filologiya va san'at fakulteti talabasi

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ХОРЕЗМСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦЫ

Хайтбаева Мухлиса Мухторовна

Студентка факультета филологии и искусства УрГУ

LINGUODIDACTIC FEATURES OF KHOREZM FOLK PROVERBS

Haytbayeva Mukhlisa Mukhtor kizi

Student of the Faculty of Philology and Arts of the UrSU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm shevalarida qo'llanadigan xalq maqollarining lingvodidaktik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, adabiy tilning boyishida, qolaversa, o'zga til egalariga o'zbek tilini o'rnatishda Xorazm shevalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: maqol, Xorazm shevalari, lingvodidaktika, ta'limi korpus, paremiologiya, milliy realiya.

Аннотация: В статье анализируются лингводидактические особенности народных пословиц, используемых в хорезмских диалектах, подчеркивается значение хорезмских диалектов в обогащении литературного языка, а также в обучении узбекскому языку носителей других языков.

Ключевые слова: пословица, хорезмские диалекты, лингводидактика, учебный корпус, паремиология, национальная действительность.

Annotation: This article analyzes the linguodidactic characteristics of folk proverbs used in Khorezm dialects, highlighting the importance of Khorezm dialects in enriching the literary language, as well as in teaching Uzbek to speakers of other languages.

Key words: proverb, Khorezm dialects, linguistic didactics, educational corpus, paremiology, national reality.

Kirish. Ma'lumki, biror tilni o'rganmoqchi bo'lgan o'quvchi shu tildagi muayyan sintaktik birliklardan, tasviriy ifodalardan, ibora va maqollardan ham boxabar bo'lishi talab qilinadi. Aslida faqat xorijiy tilni emas boshqa hudud so'zlashuv tiliga oid bo'lgan paremiologik birliklarni o'rganish ham zarur hisoblanadi. Shevalar xalq tarixi, madaniyati bilan bevosita chambarchas bog'liqligi bilan u yoki bu sheva elementlarini o'rganish ham til o'rganuvchilari uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili. O'zga til va uning tarkibida o'rganiluvchi birliklarning pedagogik asoslarini tadqiq qilish bilan shug'ullanuvchi soha lingvodidaktika deb nomlanib, bu sohaga 1969-yilda N.M.Shanskiy tomonidan asos solingenan.

"Lingvodidaktika til o'qitishning umumiyligini qonuniyatlarini, o'rganilayotgan materialning didaktik maqsadlari, vazifalari va xarakteriga, bir tillilik yoki ikki tillilik o'qitilishiga qarab, muayyan tilni o'qitish mazmuni, uslub va vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi [1:59]". Rus tilshunosi L.L.Nelyubin lingvodidaktikani "pedagogika va amaliy tilshunoslikdagi chet tillarni o'qitish mazmuni, usullari va shakllarini asoslovchi bo'limi" deb ta'riflaydi [10:52].

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda shu tilga xos bo'lgan madaniyat bilan bog'lab dars jarayonlarini olib borish juda muhim va samarali hisoblanadi. Chunki har qanday xalqning tilida uning madaniyati mujassam bo'ladi. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularni ayri holda ko'rish



xaytboyevamuxlisa04@gmail.com

mumkin emas. Shuning uchun ham ta'lim o'zga tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish jarayonida milliy realiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etish tilimiz va madaniyatimizni o'zga tilli o'quvchilariga o'rgatishda samaradorlikka erishish osonlashadi [4:78]. Milliy realyalar, ayniqsa, xalq so'zlashuv tilida, aniqrog'i shevalarda o'z aksini topganligini ta'kidlagan holda, adabiy tilda mavjud bo'lmanaytirishda ayrim sheva elementlaridan foydalananish milliy madaniyatimizni yana ham aniqroq ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvodidaktika til o'rgatish, xorijiy tillarni o'rganish jarayonini ifoda etish uchun qo'llanilmoqda. Bunda o'quvchilarning tilga munosabati, yangi lingvomadaniyat doirasidagi muloqotni e'tiborga olish talab qilinadi. Shuning uchun xorijiy tillarni o'rgatish metodikasi maqsadini o'zga til qurilishi tizimini nafaqat shakily tuzilish – kodlar asosida, balki shu tildagi olam manzarasini anglash va mental xususiyatlarni o'zlashtirish negizida o'rganish usullari tashkil etadi [5:186]. Lingvodidaktika umumiyligi holda chet tillarini o'qitish tamoyillari bilan shug'ullanuvchi soha sifatida talqin qilinayotgani ayni haqiqat. Biroq yuqoridagi fikrlarda ta'kidlanayotganidek, madaniyatlar va shaxslararo muloqot va munosabat ko'nikmlarini shakllantirishda nafaqat o'zga til, balki bir til doirasida boshqa hudud dialektlariga xos bo'lgan til birliklarini ham turli metodlar asosida o'rgatish ham aslida lingvodidaktikaning asosini tashkil qiladi. Maqollar hamisha til o'rganuvchilari uchun qiziqarli muhim til birligi bo'lib qolaveradi. Shu nuqtayi nazaridan o'zga dialekt namunalarini o'qish jarayonida, til ta'limida maqollar vositasida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Tahlil va natijalar. Lingvodidaktikaning asosi til turi hisoblanadi. Tilni o'qitishda tilda va o'quv jarayonida amal qiladigan qonunlar lingvodidaktikaning asosiy qonunlaridir. Shu bilan birga, o'quv jarayonida amal qiladigan qonunlar, avvalambor, tilni o'zlashtirish jarayoniga tegishli bo'lgnarni anglatadi (ular fan sifatida metodologiya uchun muhimdir) va didaktik nutqning tuzilishi va ularning o'quv jarayonidagi faoliyati bilan bog'liq [6:88]. Ma'lumki, adabiy til ichki va tashqi manba asosida boyiydi. Bu boyishda ichki manba sifatida shevalardan so'z olish muhim jarayon hisoblanadi. Shevalardan olingan so'zlarning asli mohiyatini bilish, tushunish uchun ularning sintaktik

qoliplardagi o'rni dastavval kuzatiladi. Bu borada muayyan sintaktik qolip darajasidagi, qolaversa, hudud etnografiyasiga bevosita aloqador bo'lgan xalq maqollaridan foydalanish ancha samara beradi. Xorazm shevalarida faol qo'llanuvchi "Aya majuz olti gun, olti oy qishdan qotti gun" maqolida *aya majuz* birikmasining ma'nosi butun maqol mazmunidan anglashiladi. Turkiy xalqlar talqinida fasllar ayolga qiyoslangan: bahor – kelinchak, yoz – farzandli ayol, kuz – ona va farzandlarining yetilishi, qish esa yoshi o'tayotgan momo ya'ni aya deyilgan. "Ma'juz" sovuq. Qishning oxirgi pallasi va bahorning kirib kelishi davrida bo'ladigan 6 kunlik sovuq havo oqimi aya ma'juz deb nomlanadi [2:30] va uning barcha qish kunlaridan ham sovuq kelishi maqolda ifodalangan. Shunga o'xshash yana bir maqolda o'tmishda ishlatalgan so'zning maqoldagi ifodasi orqali mazmuni anglashilishini ko'rish mumkin: "Begora borsam yetar, ig'ransam gunim o'tar". Ushbu maqoldagi *begor* so'zi xonlik uchun bepul ishlab beriladigan soliq turi ya'ni hasharni bildiradi. Arna (kanal) va yoplarni qazishda xalq begorga jalb qilingan. Ayrim ishyoqmaslar qazuv payti o'zlarini xuddi ishlagandek ko'rsatishgan. Bugungi kunda ham bu maqol juda dolzarb hisoblanadi [2:33]. Ko'rindaniki, qadim xorazmiy tiliga, shuningdek, shevalariga mansub turlicha so'zlarning maqollarda qo'llangani va ularni til ta'limi jarayonida o'rgatish juda muhim masala hisoblanadi.

Maqollar xalqning ruhi, aqli, donishmandligini ifodalovchi asaridir. Ularda odamlar hayotining ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy, tarixiy va boshqa jihatlari aks ettirilgan. Maqollar, odatda, to'liq jumla shakliga ega bo'lgan va uni paremiyaning boshqa turlaridan ajratib turadigan turli belgilarga ega bo'lgan o'rinni majoziy so'z deb tushuniladi. Bu belgilarga quyidagilar kiradi: umumiyligi qo'llanish, milliylik, obrazlilik, metafora, qisqalik, ixchamlik, tarkibiy-semantic to'liqlik va didaktiklik. Bu belgililar chet tilini va boshqa hudud so'zlashuv tilini o'rgatishda maqollardan foydalananish muhimligini ko'rsatadi, chunki ular til haqidagi bilimlarni, xalq madaniyati, tarixi va mentalitetini tushunishni kengaytiradi [9:153].

Maqollar lisoniy iboraning alohida turi bo'lib, muomala qoidalarini belgilab beruvchi, hodisa va harakatlarga bugungi kun amaliyoti nuqtayi nazaridan me'yoriy baho beradi. Aytish mumkinki, maqollar butun til hamjamiyati uchun

maxsus madaniy va qadriyat kodining tashuvchisi; maqollar inson xulq-atvori va dunyoqarashining o‘ziga xos axloqiy tartibga soluvchisi vazifasini bajaradi. Ko‘pchilik maqollardagi qoidalarga ishonadi va ularga amal qiladi; yosh avlodni tarbiyalash tizimi ana shu qadimiy xalq donishmandligi namunalaridagi nasihatlarga asoslanadi. Aksariyat kishilar ongida maqollar turli dirlarning muqaddas kitoblari bilan bir qatorda axloqiy va axloqiy me’yorlar haqidagi bilimlarning asosiya manbayi hisoblanadi [8:33]. Darhaqiqat, maqollarda muayyan hududga xos bo‘lgan til elementlari nihoyatda sinchkovlik bilan tartibga solinadi.

O‘zbek tili Xorazm shevalarini birinchilardan bo‘lib tadqiq qilgan olim F.Abdullayev 325 ta maqolni to‘plab, shevalar tasnifi o‘rnida keltirib o‘tgan. Ushbu manba Xorazm shevalaridagi maqollarni o‘rganishda juda qimmatli hisoblanadi. Mazkur maqollarning aksariyati faqat Xorazm shevalarida qo‘llanilsa, ayrimlari adabiy tilga xos bo‘lgan maqollarning shevalardagi variantlari hisoblanadi. Xususan, “*Shamol bo‘lmayincha ag‘ach bashi darpanmiydi*”, “*Qo‘ngishi qo‘ngishidan rang oladi*”, “*Bola yig‘lob-yig‘lob kala vo‘ladi*” [7:311] kabi maqollar shular jumlasidandir. F.Abdullayev Xorazm shevalaridagi maqollar turli hududlarda turlicha variantlarda qo‘llanishini ham alohida tasnif qilgan.

Xorazm shevalarida qo‘llanib kelayotgan xalq maqollarini to‘plab kelayotgan va kitobxonlarga havola qilgan yana bir ijodkor V.Sultonovdir. Uning “Xorazm xalq maqollari” nomli to‘plamida 28 ta mavzuiy guruhga xos bo‘lgan 675 ta maqollar jamlangan. Quyida mazkur to‘plamga kiritilgan ayrim maqollar haqida to‘xtalamiz.

“*Ichinda sultoni yo‘q*” [2:16]. Ushbu maqol ishni ishtiyoqsiz bajaradigan kimsalarga nisbatan qo‘llanilib, ko‘nglida qaysidir ishni oxiriga yetkazishga qalban turtki yo‘qligini bildiradi.

“*Qora darim o‘kchama oqdi*” [2:16]. Ter so‘zi (terlamoq) Xorazm o‘g‘zu shevalarida *dar* (*darlamak*) tarzida qo‘llaniladi. Ushbu maqolda qattiq mehnat qilinganligi va mubolag‘aviy holatda terner o‘kchadan ham oqqanligi ifodalangan.

“*Cho‘pni go‘rsang, holi go‘rma*”. “holi” so‘zi e’tiborsizlik bilan qarash mazmunini bildiradi. Ushbu maqol kuch-qudrat hamma narsada

mavjudligi va har bir insonning o‘ziga yarasha xislati borligi haqida [2:17].

Gech ochilg‘an gul tez so‘vilar. Kech gullagan daraxtning meva bermasligi aniq bo‘lgani kabi kech boshlangan ishning ham qiyin bo‘lishi to‘g‘risida [2:14].

“*Kadxudo bo‘lin dasang, Gurlana qo‘nib o‘t*”. Katxudo so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, el-yurt ichida so‘zi o‘tadigan, gapiga hamma quloq soladigan kishiga nisbatan ishlataladi. Gurlan kadxudolar eli deb xalq orasida ko‘p ishlataladi. Ya’ni boshqalarga nasihat qiladigan, o‘zgalar ishiga ko‘p aralashadigan va o‘z so‘zini o‘tirishga harakat qiladigan kishilar viloyatning Gurlan tumanida ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu maqolda o‘g‘uz va qipchoq lajhasi elementlarini ko‘rish mumkin. Gurlana so‘zidagi jo‘nalish kelishigining qisqargan shakli o‘g‘uz dialektiga xos xususiyat bo‘lsa, *qo‘nib o‘t birligi* qipchoq lajhasinga xos bo‘lgan shimoliy Gurlan shevasi elementidir. *Qo‘nmoq* yotib qolmoq ma’nosini bildiradi.

“*Yetti qozig‘o oshno atadi*”. Xiva xonligi davrida o‘ta qiyin masalalarni yechish maqsadida saroya yetti qozidan iborat maxsus guruh tashkil qilingan. Yetti qozi da‘vogarga ketma-ket savollar berishib uni gangitib qo‘yishgan. Ushbu qozilar guruhi Isfandiyorxon davriga kelib tugatilgan. Bu bilan bironqa yomonroq odamga ishi tushgan insonning har xil bahonalar bilan ovora qilishi aytildi [2:20].

“*Bilma-biluv bo‘lmasa, durtma biluv naylasin*”; “*Quyini qozor kimlar, suvini ichar kimlar?*”; “*Go‘naltirganni kuni ortiq*”; “*Ishtoniy yo‘q, diyzi yirtiqa gulibdi*” kabi xalq jonli tiliga oid og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan juda ibratlari maqollar Xorazm shevalarida faol qo‘llanib kelibmoqda. Aytish joizki, “Har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratlari voqealro‘y bergan va bu barchaga ibrat qilib ko‘rsatish maqsadida maqolga aylantirilgan” [3:92]. Lingvodidaktik yondashuv asosida bunday xalq maqollarini o‘rganish va tadqiq qilish, nafaqat shu hudud kishilari hamda boshqa sheva vakillari uchun, shu bilan birga til o‘rganuvchi o‘zga millat vakillari uchun ham foydali ma‘lumotlarni beradi.

Xulosa. Umuman olganda, maqollar o‘zida juda katta didaktik yukni jamlagan xalqning buyuk madaniy merosi va noyob til birligi hisoblanadi. Xorazm shevalaridagi maqollarning boshqa hududlarda qo‘llanadigan muqobil variantlarini

aniqlash, varianti bo‘lmagan holda, adabiy tilga kiritish, shuningdek, bu jihatdan til o‘rganuvchilarga qulayliklar yaratish sohaning dolzARB masalasi desak bo‘ladi. Endilikda kognitiv-intellektual yondashuv asosida maqollarni ham lingvodidaktik takomillashtirishga zarurat mavjud. Bu borada ta’limiy korpuslarni yaratish va mutaxassislarni jalb qilish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Raximova J. Lingvodidaktik atamalarning metodologik jihatlari. “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar” ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B.59.
2. Sultonov V. Xorazm xalq maqollari. – Xorazm ,– 2024.
3. Tafakkur gulshani. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.1981.
4. Tursunova J. O‘zbek tili darslarida milliy realiyalarni o‘rgatish xususiyatlari.

- “Lingvodidaktikaning dolzARB muammolari”, – Toshkent, -2024.
5. Xolmonova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, – 2019.
 6. Shodmonova D. Ona tili darslarida lingvodidaktikaning ahamiyati. – Toshkent-2024.
 7. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: 1964.
 8. Фролова Т.А. Основные особенности пословиц и поговорок русского языка. Филологические науки. 26 ноября 2016 г.
 9. Камбарова М. Лингвотеоретические и лингвометодические аспекты пословиц английского языка.
<https://lingvospektr.uz/index.php/Lngsp/article/view/153>
 10. Нелюбин Л.Л. Компьютерная лингвистика и машинный перевод. – М.: ВЦП, 1991.

